



TURIZMNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA AHAMIYATI

Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasida
dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari nomzodi,

Abduraimov Nursulton Abduraim o'g'li

O'zMU Jizzax filiali "Psixologiya" fakulteti "Ijtimoiy va
iqtisodiy fanlar" kafedrasida Iqtisodiyot yo'nalishi
3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7655515>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 16-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 20-fevral 2023 yil

KEY WORDS

*turizm, milliy iqtisodiyot,
strategiya, tadbirkorlik, turistik
korxonalar, telekommunikatsiya,
milliy urf-odatlar, qadriyatlar,
daromad.*


ABSTRACT

*Maqolada turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini,
O'zbekiston hududida turizmning o'rnini, qilinayotgan
ishlar, va uning qay darajada rivojlanayotganligi hamda
muammolari yoritilgan.*

Hozirgi paytda butun jahonda, jumladan O'zbekistonda ham iqtisodiyotning xizmatlar sohasi, xususan turizm sohasiga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Hozirgi juda tez rivojlanib va o'zgarib borayotgan asrimizda insonlarning fikri, qiladigan ishlari, yaxshi hayot kechirish va hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning milliy urf - odatlari, milliy qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlar+ni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda. Bu esa mamlakat turizm sohasining yoki milliy turizmning qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Turizmning rivojlanishi faqatgina shu tarmoqni emas bundan tashqari savdo-sodiq, oziq-ovqat, transport, bozor infratuzilmasi, qurilish, hunarmandchilik, tadbirkorlik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ham rivojlanishiga sababchi bo'lib qoladi. Asrimiz faqatgina texnika va texnologiya asri emas, balki turizm va sayyohlik asri ham bo'lishi prognoz qilinayotgan sharoitda O'zbekistonda ham bu sohaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, turizmni rivojlantirish uchun har tommonlama keng imkoniyatlar va asoslar yaratilmoqda. Faqat zamonaviy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog'onalariga ko'tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O'zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo'lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir. Turizm sohasi bozor tizimidagi boshqa har qanday iqtisodiyot tarmog'i kabi alohida segment hisoblanadi. Shuning uchun ham turizm faoliyatini talab va taklifga o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, talab va taklifga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar bozor munosabatlari sharoitida xususiy mulkchilik munosabatlarini har jihatdan rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy tayanch hisoblanishadi. Har qanday mamlakatdagi turistik xizmatlar bozorida xususiy turistik firmalar mavjud talab va ehtiyojlarni atroflicha tahlil etishadi. Ko'rinib turganidek, xususiy turistik firmalar bozordagi talab va taklif omillarini to'liq hisobga olgan holda harakat qilganda, ularning respublika turizm iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri kuzatilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz xususiy turistik firmalarning turizm iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o'zni to'g'risida to'xtalib o'tishdan oldin talab va taklif omillari xususida ayrim fikr va mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Talab omillari o'zida asosan xalqaro va ichki turistik bozorlarni namoyon etadi. Bunday bozorlarda chet ellik sayyohlar bilan birgalikda mahalliy aholi ham turistik diqqatga sazovor joylar, ob'yektlar va turistik xizmatlardan keng miqyosda foydalanishadi. Taklif omillari bo'lsa o'z ichiga chet ellik sayyohlarni jalb etishi mumkin bo'lgan turistik diqqatga sazovorliklar va turli xil faoliyat turlari (milliy hunarmandchilik, musiqa va mahalliy xalq urf-odatlarini marosimlari), mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarni joylashtirish vositalari, shuningdek boshqa turistik ob'yektlar va xizmatlarni oladi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, turizm sohasidagi ekspert mutaxassislarning ta'kidlashlaricha diqqatga sazovorliklar deganda tematik xiyobonlar, hayvonot bog'lari, botanika bog'lari va akvariumlar kabi tabiiy, madaniy va maxsus ob'yektlar, shuningdek ushbu ob'yektlar bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyat turlari tushuniladi. Xalqaro turizm tashkiloti (XTT) tasnifiga muvofiq ravishda tashrif buyurgan sayyohlarni joylashtirish vositalariga turli xil shakldagi mehmonxonalar, motellar, mehmonxona tipidagi uylar, shaxsiy xonadonlar va boshqa turdagi turistlar to'xtaydigan ob'yektlar tegishli bo'ladi. Umuman olganda barcha turistik xizmatlar va ob'yektlardan samarali foydalanish uchun zamon talablariga to'liq javob bera oladigan turizm infratuzilmasini shakllantirish talab etiladi. Hozirda, respublikamizda 60 mingga yaqin turli mulkchilik shakllaridagi kichik korxonalar va tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Aynan shu korxonalardan 96,1 % shaxsiy mulkchilik ko'rinishidagi korxonalar¹. Yuqorida keltirilgan korxonalar va tadbirkorlik sub'ektlaridan kichik korxonalar hissasiga jami mahsulot, ish va xizmatlarning 96 % to'g'ri keladi.

¹<https://elibrary.namdu.uz/65%20%D0%98%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/Boltabayev%20M.P.Kichik%20biznes%20va%20tadbirkoplik.pdf>



Mana keltirib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasida xususiy va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta ahamiyat va shart-sharoitlar, yengilliklar yaratib berilmoqda. Turizmni rivojlantirish uchun xusudiy turistik korxonalar tashkil etishimiz kerak va bu boshqa sohalarda bo'lgani kabi turizmni rivojlantirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan xususiy turistik korxonalarini shartli ravishda ikki xilga ajratish mumkin: bevosita turistlarni qabul qilish, ularning sayohatlarini tashkil etish bilan shug'ullanadigan firmalar hamda turizmni rivojlantirishga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi kichik va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari. Birinchi toifani tashkil etuvchilar kichik turistik firmalar, shaxsiy mehmonxonalar, kempinglar, restoranlar kabilar kirsalar, ikkinchi toifaga an'anaviy-milliy xarakterdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan mahalliy kichik va xususiy korxonalar, hunarmandchilik korxonalari va shu kabilarni va bundan tashqari bunday infratuzilma o'z ichiga transport va kommunikatsiya xizmatlarini ham qamrab olishi kerak. Ma'lumki, mamlakatga tashrif buyuradigan turistlar oddiy taomdan boshlab qimmatbaho suvenirlargacha bo'lgan mahsulot va xizmatlarning ma'lum miqdoriga talab bildirishadi. Bu tabiiy ravishda, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kichik va xususiy biznes korxonalariga o'z imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun yo'l ochadi. Fermerlar turistlar istiqomat qiladigan mehmonxonalarga toza mahsulotlarni yetishtirib turishadi, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatida faoliyat ko'rsatadigan kichik va xususiy korxonalar turistlar uchun zarur bo'lgan yotoqxonalar jihozlari, choyshab va boshqa shu kabilarni ishlab chiqarishadi, parfyumeriya sanoati korxonalari shampun, sovun va dezodorantlarni ishlab chiqarishadi. Hunarmandchilik ustaxonalari va an'anaviy milliy mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxonalar ham turistlar uchun buyurtmalar tayyorlashadi. Umuman olganda, hozirgi kunda respublika turizm sohasidagi xususiy turistik korxonalarining faoliyat ko'rsatish jarayonida ba'zi muammolar ham yo'q emas. Ayni kunga kelib, dunyodagi ko'plab mamlakatlar o'zlarining turizmni rivojlantirish bo'yicha strategiyalarida sanitar-ekologik omilga ham infratuzilma rivojini ta'minlovchi omil sifatida baho berishmoqda. Chunki, zamonaviy turizmni atrof-muhitning muhofazalanishi va ekologik tozaliksiz tasavvur etish qiyin. Ana shunday jihatlarga ega infratuzilmaning jahon andozalariga mos ravishda

rivojlanishi, ya'ni turistlarga imkon qadar sifatli xizmat ko'rsatishning tashkil etilishi har jihatdan xususiy firmalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga bog'liq bo'ladi. Ekspert mutaxassislarning baholashlaricha barcha talab va taklif omillari turistik mahsulotni shakllantiradi. Xalqaro turizm talabi, ya'ni O'zbekiston bo'yicha sayohat qiluvchi chet ellik sayyohlarning talabi umumiy turistik mahsulotning beshdan bir qismini tashkil etsa, ichki talab, ya'ni mamlakatimiz bo'yicha sayohat qiluvchi mahalliy turistlar uchdan bir qismidan ko'prog'ini tashkil etadi. Turistik mahsulotning qolgan qismi turli xil diqqatga sazovor vositalar va turizm ob'ektlari joylashgan hududlarda istiqomat qiluvchi mahalliy aholi tomonidan iste'mol qilinadi. Ko'rinib turganidek, mamlakatimiz turizmi chet ellik sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga qaraganda ko'proq mahalliy iqtisodiyotning ichki ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Albatta milliy turizmni rivojlantirish uchun uni tartibga solish boshqarishning bozor mexanizmini yaxshilash kerak. Hozirda turizm bozori mexanizmi muayyan kamchiliklarga ega bo'lib, bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan turizm sohasini tartibga solib borilishi zarur. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirishda xususiy turistik korxonalarining faoliyat doirasini yanada kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish borasida bir qator siljishlarga erishilmoqda. O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish yo'llari mavjud. Har bir mintaqaga o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra turistlarni jalb qila oladi. Davlatimizda turistik yarmarkalarni bo'lib o'tishi ham shundan dalolat beradi. Ayniqsa Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Farg'ona vodiysi va boshqa regionlar o'z turistik mahsuloti bilan ajralib turadi. Milliy turizm o'zi bilan bog'liq sohalarni ham ijobiy tomonga rivojlanishiga olib keladi. Bunday rivojlanish kelajakda nafaqat davlat mavqeini, balki turistik bozorda davlatning o'z o'rnini topishiga va iqtisodiyotimizga katta turtki bo'la olishi g'oyasini o'z ichiga olgan. Umuman olganda, milliy turizm kelajakda mamlakatimizning eng yuqori daromadli tarmoqlaridan biriga aylanadi. Buning uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar, siyosiy tinchlik va eng asosiysi, xalqimizning insonparvarligi va mehmondo'stligi nihoyatda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.M.Abduvohidov, F.S.Qutlimurotov "TURIZM IQTISODI" o'quv qo'llanma, Toshkent, 2020- yil. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/6-y-Turizm-iqtisodi.-Oquv-qollanma.-A.M.Abduvohidov-F.S.Qutlimurotov.-T-2011.pdf>
2. Amonboyev M, Abidova D.I, Jurayeva N.A "Turizm va mehmonxona faoliyati" o'quv qo'llanma, Toshkent, Iqtisodiyot nashri, 2019-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni - O'zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent, 2000y.
4. M.P Boltayev, B.K G'oibnazarov, Sh.J Ergashxodjayeva, A.N Samadov, sh.I Otajonov, "Kichik biznes va tadbirkorlik" o'quv qo'llanma. "Noshir" toshkent-2011. M.S Qosimova, B.K G'oibnazarov <https://e-library.namdu.uz/65%20%D0%98%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/Boltabayev%20M.P.Kichik%20biznes%20va%20tadbirkoplik.pdf>
5. <https://unilibrary.uz/>
6. <https://stat.uz/uz/>
7. <https://uzbektourism.uz/>

8. www.world-tourism.org

9. <https://library.samdu.uz/download/14639>



INNOVATIVE
ACADEMY